

MAXTUMQULI SHE'RIYATIDAGI ANTONIM SO'ZLARINING TAHLILI

Ro'ziyeva Marjona

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi 122-guruh talabasi

Maxtumquli (1733-1791) otashin lirik short, o'z xalqning ardoqli kuychisi, Ayni vaqtda u o'zbek shoiri ham. Chunki uning she'rlari o'z tirikligidayoq butun turkiy xalqlar , jumladan, O'zbek xalqi orasida tarqalib kuylanib kelinadi. Xorazmlik hofuzlarning bir necha avlodi Maxtumquli she'rlarini qo'shiq qilib kuylanib kelinmoqdalar. Maxtumquli -Firog'iy xalqimizning sevimli shoirlaridan biri hisoblanadi. Uning asarlari o'tgan asrning o'rtalarida J. Sharipova tomonidan tanlanma shaklida tarjima qilinib , nashr etilgan edi.

Maxtumqulining ishq-muhabbat mavzuidagi she'rlari ham ohangdorligi, chukur falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi. Shoirning hayot va o'lim, inson va borliq, go'zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she'rlarida islom dini hamda tasavvufiy karashlar ta'siri yaqqol seziladi („Maxtumquli, shukur et sen Xudoga, O'lim barobardir shohu gadoga...“). Ko'p she'rlariga Qur'oni Karim oyatlari, hadisi sharifning mazmun mohiyati singdirilgan. Shoir she'rlarida payg'ambarlar, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari ulug' zotlar juda ko'p tilga olinadi. Shuningdek, Allohga munojot, Rasululloh (sav)ga murojaat ohanglari Maxtumquli she'riyatining eng asosiy tamoyillaridan biridir.

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanib ma'no kengaytiradi yoki ma'no ifodalaydi. Antonim badiiy nutqda qo'llanib tazod yaratish uchun xizmat qiladi. Nutqimizda lug'aviy antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga tazod san'ati deyiladi. Shuning bilan birgalikda , men Maxtumquli she'rlaring ayrimlariga murojaat qildim. Quyidagi misollarda ko'rishiz mumkin:

1. Aytishuv:

U oy-kundir , bir-biridan avlodi,
Bizdan salom bo'lsin, javob shul erur.
(oy - kun)

2. Nuqsona kelgay:

Musulmonsan, xabar olg'il Zuloldan
Qochaver xaromdan, istalغان haloldan. (xarom- halol)
Sharrga shuxrat bermak-shaytonning kori,
Qaxrini yutmoq erur rahmonning kori. (shayton - rahmon)

3. Otamning :

Derdi: " Dunyo turmas , umri boqiy yo'q,

Kunduz ro'za , kecha uyqu yo'q. (kunduz - kecha)

Yarmisini malakdan , yarmisini jindan,
Mujovirsiz bo'lmas usti otamning. (Malak- jin)

4. Yuraging qon ichinda:

Obod deya qo'l sunding, tubi vayron ichinda
Tan tufroqdir , tiklanmas javhari -jon ichinda. (obod-vayron)

Yoronlar , ul dunyoga borgan bor-u kelgan yo'q,
O'lik-tirik holinnan xabar-xotir bilgan yo'q.
Charxi falak dastinnan yig'lab ko'p-u kulgan yo'q. (bor-yo'q; yig'lagan-kulgan)

Ko'p gunohlar qozondim, oz fursatlu yillarda
Xijolatga qo'ymag'il yaxshi - yomon ichinda. (yaxshi -yomon)

5. Soya solib o'tdi:

Men g'amzadaning ko'kka chiqib did ila ohi,
Yuz jabr-u jafo qildi mening rangim gohi. (jabr-jafo)

6. Yo'lmish bu dunyo:

Aytar Maxtumquli, yor bo'lsa Xudoy,
Aniq birligina ayla qul parvoy.
Tug'ilgan kun- to'ydir, o'lgan kuning-voy.
Bosh- oyoq toshqin selmish bu dunyo. (tug'ilgan-o'lgan)

7. Kelgan ham bordir:

Yuz ming ahmoq bo'lib ozsw yo'lingdan,
Yuz ming o'zin yo'lga solg'on ham bordir. (yo'lidan ozmoq- yo'lga solmoq)

Says aytasan bul dunyoning to'rt bunching,
Qotishibdir halol-xarom, arvoh, jin.(halol - xarom)

8. Inson yaratdi:

Birovni past qildi, birovni sarbaland,

Birinchi faqir aylab, birini davlandmand.

Birini xor ayladi, birini arjumand,

Birini soyil, birini sulton yaratdi. (past-sarband; faqir-davlandmand; xor-arjumand; soyil-sulton)

9. Ko'r bila:

Yaxshi bo'lsang, joying jannat, xur bo'lar,

Yomon bo'lsang, kuyadurlar nor bila. (yaxshi- yomon)

Yaxshi - yomon jami yetmish alomat

Peshkash chiqar , turar muomalada bor bila. (yaxshi-yomon)

10. Nomus-orima:

Ko'rgan hamma xaridoridir, shoh ham, gado ham quli,

Mard-u nomard , nokas bari- so'z tashiydir yorina.(shoh-gado; mard-nomard)

11. Alif qadding dol bo'lar:

Ayo, Marcum, bul dunyoda kelarkan,

Bir kun lekin alif qadding dol bo'lar. (alif -dol)

12. Jahon sendan bexabar:

Istar seni dengizlar to'qinlanib shavqlangan,

Sen alar ichra ma'lum, ummon sendan bexabar. (ma'lum-bexabar)

13. Bu naqlidir, odamzod...

Building yaqinni-yotni , ko'zing dunyoni ko'rdi,

Yetti-sakkiz yoshingda otang mullog'a berdi. (yaqin-yot)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxtumquli Firog'iy. Saylanma. Toshkent. 2008.

2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar>.